

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOMSHUNOSLIK AKADEMIYASI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.15/2025.27.12.IsI/Tar.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOMSHUNOSLIK AKADEMIYASI

ABDURAXMANOVA NARGIZA TAXIROVNA

**ABUL BARAKOT NASAFIY “AL-MUSTASFO” ASARINING
MOVAROUNNAHR FIQH ILMIDAGI O‘RNI**

24.00.01 – Islom tarixi va manbashunosligi

**ISLOMSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Islomshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Content of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
on Islamic sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
исламоведческим наукам**

Abduraxmanova Nargiza Taxirotva

Abul Barakat Nasafiy "al-Mustasfo" asarining Movarounnahr fiqh ilmidagi
o'rnini.....3

Abdurakhmanova Nargiza Taxirotva

The role of Abul Barakat Nasafi's "al-Mustasfa" in the Fiqh Scholarship of
Mawarannahr..... 23

Абдурахманова Наргиза Тахировна

Роль произведения Абул Бараката Насафи "аль-Мустасфа" в юриспруденции
Мавераннахра 43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

List of published works

Список опубликованных работ..... 48

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOMSHUNOSLIK AKADEMIYASI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.15/2025.27.12.Isl/Tar.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOMSHUNOSLIK AKADEMIYASI

ABDURAXMANOVA NARGIZA TAXIROVNA

**ABUL BARAKOT NASAFIY “AL-MUSTASFO” ASARINING
MOVAROUNNAHR FIQH ILMIDAGI O‘RNI**

24.00.01 – Islom tarixi va manbashunosligi

**ISLOMSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2022.1.PhD/Isl62 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.iiu.uz) hamda «ZiyoNET» Axborot ta'lim portali (www.ziynet.uz)da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Islamov Zaxid Maxmudovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Muminov Ashirbek Kurbanovich
tarix fanlari doktori, professor

Mirzayev Nasriddin Muxritdinovich
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
huzuridagi Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-
tadqiqot markazi

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.15/2025.27.12.Isl/Tar.01.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «___»-oktabr soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko'chasi, 11-uy, Tel.: (99871) 2440056, Faks: (99871) 2440065, e-mail: info@iiu.uz.)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (300-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko'chasi, 11-uy. Tel.: (99871) 2440056, Faks: (99871) 2440065, e-mail: info@iiu.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «___»-sentabr kuni tarqatildi.
(2026-yil 15-sentabrdagi 2-raqamli reyestr bayonnomasi).

D.R. Maxsudov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, tarix fanlari doktori, professor

S.A. Rustamiy

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori,
professor

I.I. Daminov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari,
tarix fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tarixida islom huquqi (الفقه – al-fiqh)ning ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy masalalarni hal etishdagi oʻrni muhim ahamiyat kasb etadi. Oʻrta asrlarda movarounnahrlik faqihlar islom huquqining amaliy-huquqiy masalalari – furuʼu-l-fiqh (فروع الفقه) ilmiga bagʻishlangan tayanch manbalarni yaratganlar. Abul Barakot Nasafiy (vaf. 710/1310-y.) oʻzining “Nozik masalalar xazinası” (“كنز الدقائق”), “Mukammal” (“الوافى”) hamda “Kifoya qiluvchi” (“الكافى”) asarlari bilan hanafiy fiqhi rivojida oʻziga xos oʻringa ega. Uning “Foydali fiqh”ning saralangan sharhi (“المستصفى فى شرح الفقه النافع”) asari dalillarga alohida eʼtibor qaratilgani va sharhlanayotgan masalalarning asl negizi ochib berilgani bilan dolzarb ahamiyatga ega.

Dunyoning islomshunoslikka ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot muassasalarida hanafiy fiqhining manbalarini oʻrganish va oʻziga xos jihatlarini yoritib berishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Usulu-l-fiqhga oid izlanishlarda uning shakllanishi, rivojlanish tarixi, usul olimlari hamda usul qoidalariga eʼtibor qaratilayotgan boʻlsa, furuʼu-l-fiqhdagi tadqiqotlarda manbalarni alohida mavzularga tasniflash, ularda uchraydigan masalalarni dalillash, ahlu-s-sunna va-l-jamoaning toʻrt mazhabiga doir masalalarni qiyoslash hamda mavzular yuzasidan tahlil qilishga alohida ahamiyat berilmoqda. Abul Barakot Nasafiyning fiqhiy asarlari XIII–XIV asrlardagi Movarounnahr fiqh ilmining holati, yangi ijtimoiy muammolarga javob berishdagi oʻziga xos yondashuvlarni qamrab olgani bilan ahamiyatlidir. Shu nuqtayi nazardan olimning “Saralangan” (“المستصفى”) asarini tadqiq qilish furuʼu-l-fiqh sohasidagi tadqiqotlarning yangi bosqichga koʻtarilishida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Yangi Oʻzbekistonda diniy-maʼrifiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida hanafiy fiqhi va mazhab ulamolarining ilmiy-maʼnaviy merosini tadqiq etish hamda uni jamoatchilikka yetkazishda keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Buning natijasida Burhoniddin Margʻinoniyning “al-Hidoya” (الهداية – “Toʻgʻri yoʻl”), Alouddin Samarqandiyning “Tuhfatu-l-fuqaho” (تحفة الفقهاء – “Faqihlarning tuhfası”), Abul Husayn Quduriyning “Muxtasar” (مختصر – “Qisqa matn”), Alouddin Kosoniyning “Badoeʼu-s-sanoe” (بدائع الصنائع – “Nodir fatvolarning hayratlanarli yechimlari”) hamda Abul Barakot Nasafiyning “Kanzu-d-daqiq” (كنز الدقائق – “Nozik masalalar xazinası”) kabi kitoblari ilmiy-izohli tarjima qilinib, nashr etildi. Lekin mazkur sohaga oid tadqiqotlarga keng jalb qilinmagan koʻplab manbalar ham mavjud. Shu oʻrinda Movarounnahr hanafiy fiqh ilmi rivojida oʻziga xos mavqega ega boʻlgan Abul Barakot Nasafiy hayoti va ilmiy merosini tahlil etish hamda “al-Mustasfo” asarining fiqh ilmi taraqqiyotidagi ahamiyatini koʻrsatib berish sohadagi tadqiqotlarning mantiqiy davomi boʻlib xizmat qiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son “Diniy-maʼrifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”, 2025-yil 21-apreldagi PF-68-son “Fuqarolarning vijdon erkinligi huquqi kafolatlarini yanada mustahkamlash hamda diniy-maʼrifiy sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib

chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-iyundagi 466-son "O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 24-iyundagi 519-son "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining kutubxona fondini xorijiy adabiyotlar bilan boyitish to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Movarounnahrda fiqh ilmining paydo bo'lish tarixi va uning rivojlanish bosqichlari hamda faqihlar borasida turli yo'nalishda tadqiqotlar amalga oshirilgan. Abul Barakot Nasafiyning hayoti, faoliyati, ilmiy merosi G'arb va Sharq sharqshunoslari, islomshunos olimlari tomonidan tadqiq etilgan. G'arb olimlaridan: K. Brokkelman, F. Myuller o'z tadqiqotlarida Nasafiyning hayoti va ilmiy merosi to'g'risidagi birlamchi ma'lumotlarni bayon etganlar¹.

Abul Barakot Nasafiyning hayoti va asarlari haqida sharq olimlaridan: Abdulhay Laknaviy, Mavlono Toshko'prizoda, Muhammad Shafiq G'irbol, Shamsiddin Dovudiy, Hoji Xalifaning tabaqot-bibliografik kitoblarida muhim ma'lumotlar keltirilgan². Hozirgi davr arab tadqiqotchilaridan: Abdulloh Ali Abul Vafo, Amir Abdulaziz, Ahmad Muhammad Sa'd G'omidiy, Muhammad Rushdiy Ahmad Mansur, Muhammad Husayn Zahabiy, Yusuf Ali Badyaviy olimning ayrim asarlarini tadqiq etganlar³. Xususan, Ahmad Muhammad Sa'd G'omidiy 2010-yil Makkaning "Ummu-l-quro" universitetida "al-Mustasfo" asarining ibodatlar qismi bo'yicha doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

Abul Barakot Nasafiyning hayoti va ayrim asarlari bo'yicha turkiyalik olimlardan: Akman Gulsum va Nurulloh Denizler, Ali Ero'g'lu, Ahmet Duman,

¹ Brockelman C. Geschichte der arabischen litteratur. 2. Band. – Berlin: Verlag, 1902; Muller F.M. The sacred books of the East. Volume VI. The Qur'an. Translated by Palmer E.H. Motilal Banarsidass; Muller F.M. The sacred books of the East. Volume IX. The Qur'an. Translated by Palmer E.H. Motilal Banarsidass.

² عبد الحى اللكنوي. الفوائد البهية في تراجم الحنفية. – بيروت: دار الأرقم، 1998. – ص. 172-174؛ مولانا طاشكبري زاده. طبقات الفقهاء. الموصول: المطبعة الزهراء الحديثة، 1961. – ص. 113؛ محمد شفيق غريال. الموسوعة العربية الميسرة. دار الجيل والجمعية المصرية، 1995. ج. II. – ص. 1833؛ شمس الدين محمد بن علي الداوودي. طبقات المفسرين. – بيروت: دار الكتب العلمية، 2002. – ص. 458؛ حاجي خليفة مصطفى بن عبد الله. كشف الظنون عن أسامي الكتب والفنون. – بيروت: دار إحياء التراث العربي، 1941. ج. II. – ص. 1169-1168، 1641-1640.

³ عبد الله علي أبو الوفا. الإمام أبو البركات النسفي وآراؤه الكلامية. رسالة دكتوراه في العقيدة والفلسفة. – القاهرة: الأزهر، 2019. – ص. 646؛ أمير عبد العزيز. دراسات في علوم القرآن. – بيروت: دار الفرقان، 1983؛ أحمد محمد سعد الغامدي. المستصفى (قسم العبادات). رسالة دكتوراه في الفقه. – مكة: جامعة أم القرى، 2011. – ص. 1122؛ محمد رشدي أحمد منصور. جهود أبي البركات النسفي في أفعال الله وأفعال العباد // كلية الدراسات الإسلامية والعربية بنات القارن. العدد III. – مصر، 2022. – ص. 611-655؛ محمد حسين الذهبي. التفسير والمفسرون. – القاهرة: دار الحديث، 2012. ج. I. – ص. 260-264؛ يوسف علي البديوي. أبو البركات النسفي. تفسير النسفي / تحقيق. في III مجلدات. – بيروت: دار ابن كثير، 1999. ج. I. – ص. 5-12.

Baysal Siddik va Muhammad Bahouddin Yuksel, Kilich Aslan, Muhammad Murtazo Guvesh, Rejep O'nal, Ulugo'l Fatih, Yunus Akcha, Hasan Uvzar va Muhammad Jaba kabilar tadqiqotlar olib borishgan⁴. "Al-Mustasfo" ning uch jildlik zamonaviy nashrini Hasan Uvzar va Muhammad Jaba 2017-yili Istanbulda tadqiq qilganlar. Unda mualliflar asarning beshta qo'lyozma nusxasini qiyosiy tahlil qilish orqali matndagi farqli jihatlarni aniqlab, uning uslubi hamda manbalari haqida ma'lumot berganlar.

O'zbekistonlik olimlardan: A. Abdullayev, S. Ahmedov, A. Mallaboyev, D. Maxsudov, B. Muxtarov, N. Muhammad, R. Obidov, A. Saidov va S. Is'hoqov, U. Uvatov allomaning ilmiy faoliyati hamda yozgan asarlari bo'yicha bir qator tadqiqotlarni amalga oshirishgan⁵. Xususan, islomshunos olim D. Maxsudov Nasafiyning hayoti hamda tafsir ilmida tutgan o'rniga oid monografiya chop ettirgan. B. Muxtarov tadqiqotida esa, Nasafiy va uning "al-Mustasfo" asari haqida ma'lumot berilgan. A. Mallaboyev o'z maqolasida "al-Mustasfo" asarining yozilish tarixi hamda o'ziga xos xususiyatlari haqida muhim ma'lumotlarni keltirgan. S. Ahmedov Nasafiyning "al-Vofiy" asarini tadqiq etish asosida unda hanafiy fiqhi qoidalarining qo'llanilishini yoritib bergan.

Yuqoridagi izlanishlarda "al-Mustasfo" asariga oid ayrim masalalar yoritilgan bo'lsa-da, uni kompleks tarzda tadqiq etish zarurati saqlanib qolmoqda. Mazkur dissertatsiya Abul Barakot Nasafiy "al-Mustasfo" asarining Movarounnahr hanafiy fiqhi tarixidagi o'rnini va uning zamonaviy fiqhiy masalalarni hal etishdagi ilmiy-amaliy ahamiyatini ochib berishga qaratilgani bilan dolzarbdir.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston xalqaro islom akademiyasining 2020-2022-yillarga mo'ljallangan FZ –

⁴ Akman Gülsüm, Nurullah Denizer. Dirâyet tefsirinde esbâb-ı nüzûlün yeri. Medârikü't-tenzîl örneği. İlahiyat Dergisi 3, 2019. – S. 159-177; Ali Eroğlu. Şiirle İstişad ve İstişâd Açısından Medarik Tefsiri. Atatürk üniversitesi ilahiyat fakültesi dergisi 12, 1995. – S. 149-173; Ahmet Duman. Neseî'nin siyer rivâyetlerine yaklaşımı - Medârikü't-tenzîl ve hakâikü't-te'vîl örneği. Diyanet ilmi dergi 57/2, 2021. – S. 561-594. Baysal Siddik, Muhammed Bahaeddin Yüksel. Klasik Osmanlı dönemi ufuk eserlerinden Neseî'nin Medârik'inde te'vîl olgusu ve Osmanlı düşüncesine katkıları. Osmanlı Düşüncesi: Kaynakları ve Tartışma Konuları, 2019. – S. 583-612; Kılıç Aslan. Bir Hanefî-Mâtürîdî Âlimi Ebü'l-Berekât en-Neseî. T.C. Uludağ Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi, sayı: 1. 2013. – S. 57-83; Muhammed Murtazâ Cüveys. Ebü'l-Berekât en-Neseî ve Medârikü't-Tenzîl'de Nahiv Metodu. 2021. – S. 304; Recep Önal. Ebü'l-Berekât en-Neseî'nin ilahî isim ve sıfatlara yaklaşımı. Mayıs Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi, sayı: 42. 2017. – S. 135-161; Ulugöl, Fatih. Neseî'nin Medârikü't-tenzîl adlı tefsirinde arap gramer ve belâgatıyla ilgili konulara yapılan işaretler. Diyanet İlmi Dergi 59, 2023. – S. 285-316; Yunus Akça. Medârikü't-tenzîl ve hakâikü'r-te'vîl tefsirinde teşbih sanatı. Şırnak üniversitesi ilahiyat fakültesi dergisi 11/24, 2020. – S. 393-425; Hasan Uzar, Muhammed Caba. El-Mustasfâ fî Şerhi'n-Nâfi'. – İstanbul: Mektebetü'l-İrşad, 2017. – S. 1759.

⁵ Abdullayev A. Abu-l-Lays as-Samarqandiyning Movarounnahr tafsirshunosligida tutgan o'rnini: tar.fan.nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent: TIU, 2007. – B. 28; Ahmedov S. Abu Barakot Nasafiyning Movarounnahr hanafiy fiqhi rivojiga qo'shgan hissasi ("al-Vofiy" asari asosida): tar.fan.b.fals.dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2024. – B. 47; Mallabayev A. Abul Barakot Hofiziddin Nasafiyning "al-Mustasfo" asari – muhim fiqhiy manba // "Infolib" axborot-kutubxona xabarnomasi. № 4(16), 2018. – B. 68–69; Maxsudov D. Abul Barakot an-Nasafiy va uning "Madorik at-Tanzil va haqiqi at-ta'vil" asari (monografiya). – Toshkent: Movarounnahr, 2014. – B. 198; "Abu-l-Barakot an-Nasafiyning tafsir ilmida tutgan o'rnini". – Toshkent, 2008; Muxtarov B. Nosiruddin Samarqandiyning "al-Fiqh an-Nofe'" asari hanafiy fiqhiga oid muhim manba: tar.fan.b.fals.dok. (PhD) ... diss. – Toshkent: O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2021. – B. 70–76; Muhammad N. Nasaf va Kesh allomalari. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 51–54; Obidov R. Qur'on mavzularining ma'naviy-tarixiy ahamiyati. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2006. – B. 348; Saidov A., Is'hoqov S. Hofiz ad-din Nasafiy // Qonun himoyasida. – Toshkent, 2001. – № 2. – B. 23–25; Uvatov U. Qashqa vohasining allomalari // Toshkent islom universiteti ilmiy-tahliliy axboroti. – Toshkent, 2005. – № 3. – B. 12–13.

202002146 – “Markaziy Osiyo mutafakkirlari asarlari asosida buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi kurashning ma’rifiy, tarbiyaviy asoslarini o‘zida jamlagan multimedia dasturi hamda mobil ilovasini yaratish” mavzuidagi ilmiy loyihasi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi Abul Barakot Nasafiy “al-Mustasfo” asarining hanafiy fiqh ilmi tarixidagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

XIII–XIV asrlarda Movarounnahr fiqh ilmining rivojlanishi va ilmiy muhitini yoritish;

Abul Barakot Nasafiyning fiqh sohasidagi faoliyati: asarlari va ularning mintaq huquqshunosligi rivojiga qo‘shgan hissasini tahlil qilish;

zamonaviy tadqiqotlarda Abul Barakot Nasafiy merosining tarixshunosligi, ulardagi yondashuvlar hamda o‘ziga xos jihatlarini ochib berish;

“al-Mustasfo” asari qo‘lyozma nusxalarining kodikologik tahlili va ilmiy tavsifini amalga oshirish;

asar mavzularini tahlil qilish orqali muallif tayangan manbalarni ko‘rsatib berish;

muallifning fiqhiy masalalarni sharhlashdagi o‘ziga xos uslubini yoritish;

asarda an’anaviy hanafiy fiqhi atamalarini qo‘llashdagi yondashuvlarni aniqlash;

“al-Mustasfo” asaridagi nikoh, taloq, nafaqa bilan bog‘liq oilaviy munosabatlarga oid masalalarni alohida tadqiq etish;

bugungi kunda jamiyat hayotida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-maishiy muammolarga javob topishda “al-Mustasfo” asarining ahamiyatini ko‘rsatish hamda ulardan unumli foydalanish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida XIII–XIV asrlar Movarounnahrda fiqh ilmining holati etib belgilangan.

Tadqiqotning predmetini Abul Barakot Nasafiy “al-Mustasfo” asarining hanafiy fiqhi rivojidagi o‘rni tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada kompleks yondashuv, ilmiy bilishning dialektik, tarixiylik, mantiqiylik, analiz, sintez va kodikologik tahlil kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro viloyati axborot-kutubxona markazida saqlanayotgan Abul Barakot Nasafiy “al-Mustasfo” asarining № 20-qo‘lyozma nusxasi 1286-yil, muallif hayotligi davrida ko‘chirilgani hamda unda Xo‘ja Porso shaxsiy muhrlarining mavjudligi uning yuqori manbashunoslik qiymatiga ega noyob manba ekanini ko‘rsatishi ochib berilgan;

Abul Barakot Nasafiy “al-Mustasfo” asarida furu‘u-l-fiqhning sohalari ibodat (العبادات), muomalot (المعاملات), jazo (العقوبات) kabi uch asosiy qism doirasida bayon qilingan bo‘lsa-da, e’tiqod (الاعتقادات) hamda odob (الاداب) masalalarining ham alohida sharhlanishi fiqhiy tasnif doirasini kengaytirib, asarni insonning diniy-axloqiy kamolotiga oid jihatlarini ham qamrab olgan mukammal manba sifatida talqin etishga asos bo‘lgani isbotlangan;

Imom G‘azzoliyga nisbat berilgan “Aqliy mezonlarga ko‘ra to‘g‘ri deb topilgan va sog‘lom tabiat (qalb) tomonidan qabul qilingan narsa” (ما استقر في النفوس من جهة قضايا العقول و تلقته الطباع السليمة بالقبول) mazmunidagi urf ta‘rifi Abul Barakot Nasafiyning “al-Mustasfo” asarida keltirilgan bo‘lib, keyingi davr olimlaridan Muhammad Salom, Saloh Muhammad Abul Haj kabi mualliflar ham uni o‘z asarlarida naql qilganlari aniqlangan;

“al-Mustasfo” asarining “Ijaralar” bobida “Vaqt o‘tishi (sharoit o‘zgarishi) bilan hukmlarning o‘zgarib turishi ehtimoldan xoli emas” (لا يبعد ان يختلف الحكم باختلاف الاوقات) degan qoida Faxriddin Zayla‘iyning “Tabyinu-l-haqoiq” va Muhammad Shalabiyning “Ta‘liylu-l-ahkom” asarlarida diniy ishlarda sustlik paydo bo‘lmasligi uchun Qur‘onga haq olish joizligi masalasiga nisbatan tatbiq qilingani bilan dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

XIII–XIV asrlar mo‘g‘ullar bosqini davri bo‘lishiga qaramay, Abul Barakot Nasafiy kabi olimlar yetishib chiqqani hamda uning qalamiga mansub: tafsir ilmiga oid – 1 ta, kalom ilmiga oid 3 – ta, fiqh ilmiga oid 11 ta – jami 15 ta asari aniqlangan;

Berlin davlat elektron kutubxonasi ma‘lumotida Najmiddin Umar Nasafiyga nisbat berilgan “Oxirat ilmlari haqida ajoyib marvaridlar” (اللالى الفاخرة فى علوم الاخرة) asari Berlindagi qirolik kutubxonasi katalogida № 2750-raqam ostida saqlanayotgani hamda uning Abul Barakot Nasafiyga tegishli ekani isbotlangan;

Abul Barakot Nasafiyga nisbat berilgan axloqqa oid “Amallarning fazilatlar” (فضائل الاعمال) nomli asarning Nyu-Jersidagi Prinston nomli islomiy qo‘lyozmalar saqlanadigan raqamli kutubxonada mavjudligi aniqlanib, uning kodikologik tahlili amalga oshirilgan hamda asar mazmuni yoritilgan;

“al-Mustasfo” asarining respublika va xorijda saqlanayotgan 53 ta qo‘lyozma nusxasi aniqlanib, ulardan muallif zamoniga eng yaqin bo‘lgani, noyobligi e‘tiboridan 6 ta qo‘lyozmaning manbashunoslik tahlili amalga oshirilgan hamda ilmiy iste‘molga kiritilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi uning “al-Mustasfo” asarining O‘zRFASHI qo‘lyozmalar fondida № 3215 hamda Turkiyaning Millet genel kutubxonasida

№ 847-raqamlari ostida saqlanayotgan qo‘lyozma nusxalari, shuningdek, 2017-yili Istanbulda Hasan Uvzar va Muhammad Jaba tomonidan amalga oshirilgan zamonaviy nashriga tayanilgani, dalillar bilan asoslangani, zamonaviy qiyosiy-tarixiy hamda Sharq va G‘arb islomshunoslik maktablarida shakllangan qator ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgani, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilgani hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda bayon etilgan Abul Barakot Nasafiyning “al-Mustasfo” asari Movarounnahr fiqh ilmi rivojini o‘rganishda muhim manba ekanligi borasidagi ilmiy-nazariy xulosalar sohaga oid kelgusi ilmiy tadqiqotlarga asos bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ulardan oliy va o‘rta maxsus diniy ta‘lim muassasalarida o‘qitiladigan: “Islom tarixi va manbashunosligi”,

“Islomshunoslik”, “Islom huquqi”, “Islom huquqi metodologiyasi”, “Islom huquqi asoslari”,

“Furu’u-l-fiqh” kabi fanlar mazmunini yangi nazariy ishlanmalar bilan boyitish, oliy o’quv yurti talabalari uchun ma’ruzalar o’qish va maxsus kurslar tayyorlash jarayonida Movarounnahrning XIII–XIV asrlardagi fiqh ilmi rivojiga oid bo’limlarini yozish, sohaga oid fakultativ darslar, seminar mashg’ulotlari va maxsus kurslarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Abul Barakot Nasafiy “al-Mustasfo” asarining Movarounnahr fiqh ilmidagi o’rnini tadqiq etish bo’yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro viloyati axborot-kutubxona markazida saqlanayotgan Abul Barakot Nasafiy “al-Mustasfo” asarining № 20-qo’lyozma nusxasi 1286-yil – muallif hayotligi davrida ko’chirilgani hamda unda Xo’ja Porso shaxsiy muhrlarining mavjudligi uning yuqori manbashunoslik qiymatiga ega noyob manba ekanini ko’rsatishi ochib berilgani haqidagi xulosalardan O’zbekiston Respublikasi Din ishlari bo’yicha qo’mitasi tomonidan o’tkazilgan ma’naviy-ma’rifiy sohadagi tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish hamda targ’ibotchilar uchun qo’llanmalar ishlab chiqishda foydalanilgan (O’zbekiston Respublikasi Din ishlari bo’yicha qo’mitasining 2026-yil 21-maydagi 02-02/02/1/1790-son ma’lumotnomasi). Natijada ushbu qo’lyozmaning muallif hayotligi davrida ko’chirilgani hamda unda Xo’ja Porso shaxsiy muhrlarining mavjudligiga oid manbashunoslik jihatdan muhim ma’lumotlar keng jamoatchilikka yetkazilib, asarning noyob ilmiy-ma’naviy meros sifatidagi ahamiyati haqidagi tasavvurlarni yanada boyitishga xizmat qilgan;

Abul Barakot Nasafiy “al-Mustasfo” asarida furu’u-l-fiqhning sohalari: ibodat (العبادات), muomalot (المعاملات), jazo (العقوبات) kabi uch asosiy qism doirasida bayon qilingan bo’lsa-da, e’tiqod (الاعتقادات) hamda odob (الاداب) masalalarining ham alohida sharhlanishi fiqhiy tasnif doirasini kengaytirib, asarni insonning diniy-axloqiy kamolotiga oid jihatlarni ham qamrab olgan mukammal manba sifatida talqin etishga asos bo’lgani to’g’risidagi xulosalardan “Ajodlarga munosib avlod bo’laylik” shiori ostida ta’lim muassasalari talaba-o’quvchilari o’rtasida o’tkazilgan madaniy-ma’rifiy targ’ibot ishlarida foydalanilgan (Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2026-yil 24-apreldagi 01-03-126-son ma’lumotnomasi). Natijada ilmiy jamoatchilikni fiqhiy kitoblardagi masalalarning yoritilishi to’g’risidagi bilimlarini yanada rivojlantirishga hissa qo’shilgan;

Imom G’azzoliyga nisbat berilgan “Aqliy mezonlarga ko’ra to’g’ri deb topilgan va sog’lom tabiat (qalb) tomonidan qabul qilingan narsa” (ما استقر في النفوس من جهة قضايا العقول و تلقته الطباع السليمة بالقبول) mazmunidagi urf ta’rifi Abul Barakot Nasafiyning “al-Mustasfo” asarida keltirilgan bo’lib, keyingi davr olimlaridan Muhammad Salom, Saloh Muhammad Abul Haj kabi mualliflar ham uni o’z asarlarida naql qilganlari haqidagi ilmiy xulosalardan Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan o’tkazilgan ma’naviy-ma’rifiy sohadagi tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish hamda targ’ibotchilar uchun uslubiy qo’llanmalar ishlab chiqishda foydalanilgan (O’zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasi huzuridagi Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2026-yil 18-maydagi 01/120-son ma'lumotnomasi). Natijada ushbu asar keng jamoatchilikda fiqhiy hukmlar to'g'risidagi bilimlarini yanada kengayishiga xizmat qilgan;

“Al-Mustasfo” asarining “Ijaralar” bobida “Vaqt o'tishi (sharoit o'zgarishi) bilan hukmlarning o'zgarib turishi ehtimoldan xoli emas” (لا يبعد ان يختلف الحكم باختلاف الاوقات) degan qoida Faxriddin Zayla'iyning “Tabyinu-l-haqoiq” va Muhammad Shalabiyning “Ta'liylu-l-ahkom” asarida diniy ishlarda sustlik paydo bo'lmashligi uchun Qur'onga haq olish joizligi masalasiga nisbatan tatbiq qilingani haqidagi ilmiy xulosalardan Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan (buyurtma asosida) tayyorlangan “O'rta asr Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy-falsafiy merosi” nomli ensiklopedik kitobning mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2026-yil 23-apreldagi 02/191-son ma'lumotnomasi). Natijada kitobxonlarning fiqhiy atama va qoidalarga oid bilimlarini yanada rivojlantirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari jami 6 ta: 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha 14 ta ilmiy ish, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, ulardan 6 tasi respublika va 2 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 130 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, o'rganish obyekti va predmeti aniqlangan. Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, ishning ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda ularning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Movarounnahr fiqh ilmi tarixini o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan bo'lib, uning birinchi bandi *“XIII–XIV asrlar Movarounnahrda fiqh ilmining rivojlanishi”* deb atalgan. Unda o'lkaga islom dini kirib kelgan vaqtdan boshlab, tafsir, hadis, kalom, mantiq, axloq, nahv, tasavvuf va boshqa ilmlar qatori fiqh ilmining ham rivojlanishi, hanafiy fiqh ilmining usul va furu' yo'nalishlari yoritilgan. Movarounnahr fiqh tarixi davrlarga bo'linib, ushbu davrlashtirishni amalga oshirgan olimlarning fikrlari bayon etilgan.

XIII–XIV asrlar Movarounnahrdagi mo‘g‘ullar istilosi natijasida ilm-fan, shu bilan bir qatorda, fiqh sohasida ham o‘zgarishlar yuzaga kelgan. Mazkur davr muxtasar asarlar davri bo‘lib, ijthod asri kabi ijod asri emas, naql, jamlash, tahqiq, tahrir, tas’hih (korrektura) hamda sayqallash davri bo‘lgan. Shuningdek, fiqh ilmi oqsab qolishi natijasida, qiymatsiz rivoyatlar, asossiz fatvolar, zaif hadislardan foydalanish, e’tiqodga oid shar’iy masalalarga jiddiy e’tibor bermaslik holatlari kuzatilib, ijtimoiy-siyosiy hayotga oid fatvolar chiqarish, arab tilida ilmiy asarlar yaratish holatlari kamaygan.

Biroq shunday mushkul davrda ham o‘z mas’uliyatini his qilgan hamda ijtimoiy mavqeini to‘g‘ri baholay olgan bir qancha olimlar yetishib chiqqan. Ular ilm-fan va ta’limning ahamiyatini chuqur anglab, uning tarqoq qismlarini tizimlashtirish, xalq merosini asrab-avaylash hamda qayta ishlash ustida qattiq bel bog‘laganlar. Mazkur davrlar Buxoroda Sadrush shahid (vaf. 616/1219-y.), Hamiduddin Zarir Romushiy Buxoriy (vaf. 666/1268-y.), Hofizuddin Kabir Buxoriy (vaf. 693/1295 y.), Muhammad ibn Tohir Karmaniy (vaf. 698/1299-y.), Gulobodiy (Kalobodiy) Buxoriy (vaf. 700/1301-y.), Abdulaziz ibn Ahmad ibn Muhammad Buxoriy (vaf. 730/1331-y.), Muhammad ibn Muhammad Buxoriy Koki (vaf. 749/1348-y.) kabi o‘ttizdan ortiq faqihlar yetishib chiqqan.

Farg‘onalik Sharofiddin Ahmad Farg‘oniy (vaf. 750/1349-y.), Abdulloh ibn Muhammad Xo‘jandiy (vaf. 750/1349-y.), Qozi Xo‘jandiy (vaf. 750/1349-y.), nasaflik Abul Barakot Nasafiy (vaf. 710/1310-y.), Ali ibn Muhammad ibn Ali Abu Bakr Ali Nasafiy (719/1319-yili hayot bo‘lgan), Lutfulloh Nasafiy (vaf. 749/1349-y.), Jaloliddin Ahmad ibn Yusuf Tuboniy (vaf. 793/1391-y.), samarqandlik Kabir ibn Kabir Dizaqiy, Mas‘ud Samarqandiy, jizzaxlik Majduddin Ustrushaniy (vaf. 637/1240-y.), Badriddin Shibliy (vaf. 769/1367-y.) kabi hanafiy mazhabining yirik namoyandalari fiqh sohasiga salmoqli hissa qo‘shganlar.

Mazkur davr faqihlarining asarlari fiqhiy masalalarni tizimlashtirish hamda ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda muhim manba bo‘lib xizmat qilgan. Ularning merosi nafaqat mintaqa ilmiy muhiti, balki butun musulmon madaniyati rivojiga katta hissa qo‘shgan.

“Abul Barakot Nasafiyning fiqh ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi” deb atalgan ikkinchi badda Nasafiyning hayoti, ustoz va shogirdlari, olimlarning unga bergan ta’riflari, ilmiy faoliyati hamda asarlariga oid ma’lumotlar jamlanib, tahlil etilgan.

Abul Barakot Nasafiy tug‘ilgan yil Muhammad Shafiq G‘irbolning *“al-Mavsuatu-l-arabiyatu-l-muyassara”* (*“Arabiy oson qomus”*) asarida 629/1232-yil deb ko‘rsatilgan⁶. Uning mashhur olim bo‘lib yetishishida Shamsul aimma Abdusattor ibn Muhammad Kardariy (vaf. 643/1245-y.), o‘z asrining taniqli imomi Hamiduddin Zarir Romushiy Buxoriy (vaf. 666/1268-y.) hamda Xoharzoda nomi bilan tanilgan Abdulkarim Kardariy (vaf. 651/1253-y.)larning o‘rni katta bo‘lgan. Nasafiy o‘z zamonasining yetuk olimlari hisoblangan hanafiy faqih Hisomuddin Sig‘noqiy (vaf. 714/1315-y.), faqih, adabiyotshunos Muzaffaruddin Ahmad ibn Ali ibn Tag‘lib (vaf. 694/1295-y.), fiqh va usulda ilm ummoni bo‘lgan imom Alouddin

⁶ محمد شفيق غربال. الموسوعة العربية الميسرة. دار الجيل والجمعية المصرية، 1995. ج. II. – ص. 1833

Muhammad Buxoriy (vaf. 730/1330-y.) hamda hanafiy mazhabining olimi Muhammad Xo‘jandiy Kokiy (vaf. 749/1349-y.) kabilarning ustozlari hisoblangan.

Abul Barakot Nasafiy Buxoroda ta‘lim olib, ko‘plab mamlakatlarga sayohat qilib, bir muddat Kirmon shahridagi “al-Qutbiyatu-s-sultoniya” madrasasida mudarrislik qilgan. Talabalarga Imom Moturidiy, Marg‘inoniy va o‘z asarlaridan saboq bergan. So‘ngra Bag‘dodga kelib, dars berish bilan birga, ko‘plab mashhur olimlarning asarlariga sharhlar yozgan⁷. Abul Barakot Nasafiyning ustozlari, ilmiy faoliyati, shogirdlari hamda keyingi davr hanafiy olimlarining u haqidagi e‘tiroflari uning Movarounnahr ilmiy muhitida alohida o‘ringa ega bo‘lganini ko‘rsatadi. U 710/1310-yili Bag‘dodning Izaj shahrida vafot etgan.

Tadqiqot davomida Nasafiydan ko‘plab matn va sharhlar qolgani, olimning ilm tahsili, asar tasnifi, tanqid hamda tahlil bo‘yicha o‘z yo‘nalishiga ega bo‘lgani qayd etilib, tafsir, aqida, axloq, usul hamda furu‘u-l-fiqh sohalarida bo‘yicha jami 15 ta asar yozgani aniqlangan. Alloma ilmiy merosining asosiy qismini fiqh ilmiga oid asarlari tashkil etib, ular Movarounnahr huquqshunosligi rivojida muhim ahamiyatga ega. Usul hamda furu‘u-l-fiqh yo‘nalishlarida faoliyat olib borgan Nasafiy asarlaridagi masalalar matn va sharh uslubida bayon qilingan.

Abul Barakot Nasafiyning fiqh ilmiga oid asarlari orasida “al-Vofiy”, “al-Kofiy”, “al-Mustasfo”, “al-Musaffo”, “al-Mustavfo”, “Kanzu-d-daqiq”lar – furu‘u-l-fiqh, “Manoru-l-anvor”, “Kashfu-l-asror”, “Doiratu-l-vusul ila ilmi-l-usul” hamda “al-Muntaxab fi usuli-l-mazhab li-l-Axsikatiy”lar esa usulu-l-fiqh yo‘nalishida yozilgan. Mazkur asarlar nomlanishidagi o‘zaro uyg‘unlik, qofiyadoshlik, ma‘no jihatidan ixchamlik muallifning yuqori darajadagi badiiy mahoratiga ishora qiladi. Shu bilan birga, Nasafiyning til, adabiyot va balog‘at ilmidagi mukammal bilim sohibi bo‘lganini anglatadi.

Abul Barakot Nasafiyning asarlari boshqa fiqhiy kitoblardan qisqa bo‘lishi bilan bir qatorda, foydali hamda ma‘no jihatidan juda keng va sarmazmunligi bilan ajralib turadi. Uning fiqhiy asarlari asrlar davomida o‘z qiymatini saqlab, bugungi kunda ham ta‘lim muassasalarida darslik sifatida o‘qitilmoqda.

“Zamonaviy tadqiqotlarda Abul Barakot Nasafiy asarlarining o‘rganilishi” deb nomlangan uchinchi badda Abul Barakot Nasafiy tomonidan yaratilgan ulkan ma‘naviy merosning olim va tadqiqotchilar tomonidan asl qo‘lyozma manbalari asosida tadqiq etilgani yoritilgan. Ushbu tadqiqotlar xorijlik hamda mahalliy olimlar tomonidan amalga oshirilgan ishlarga ajratilgan holda ikki turkumga bo‘lib o‘rganilgan.

Xorijlik olimlardan Shamil Shahin Abul Barakot Nasafiyning “Manoru-l-anvor fi usuli-l-fiqh” asari zamonaviy nashrini chop etgan. Tadqiqot qismida Nasafiyning hayoti va ilmiy faoliyati yoritilib, asarlari haqida ma‘lumotlar berilgan. Asosiy qismida “Manoru-l-anvor” asarining ahamiyati, yozilish sababi, muallif tayangan manbalar, uslubi, sharh va tarjimalari bayon etilgan. Said Bektoshning “Kanzu-d-daqiq” tadqiqotida asarning oltita qadimiy qo‘lyozma nusxalarini solishtirish orqali asosiy manbaning o‘xshash va farqli tomonlari ko‘rsatib berilgan.

⁷ Nosir M. Nasaf va Kesh allomalari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – B. 40.

Abdulloh Ismoil olimning “al-E’timod fi-l-e’tiqod” sharhini dunyoning turli hududlarida mavjud bo‘lgan to‘rtta qadimiy nusxalarini qiyoslash orqali tadqiq qilgan.

Turkiyalik Hasan Uvzar va Muhammad Jaba “al-Mustasfo fi sharhi-n-Nofe” asarini uch jildda tadqiq etishgan. Mualliflar asarning beshta qo‘lyozma nusxasini solishtirish orqali asosiy manbaning o‘xshash va farqli tomonlarini ko‘rsatib berishgan. Shuningdek, Sa’d al-G‘omidiyning “Abul Barakot Nasafiy “al-Mustasfo” asari (ibodat qismi)”, Ahmad Alhanash Asiriyning “Abul Barakot Nasafiy “al-Mustasfo” asarining “Savdo” bobi” kabi ilmiy izlanishlari muhim tadqiqotlar sirasiga kiradi. Mualliflar tomonidan asarning qo‘lyozma manbalariga tayangan holda amalga oshirilgan tahlillar Nasafiyning fiqhiy qarashlari va islom huquqi rivojidagi o‘rnini ochib berishga xizmat qilgan.

Mahalliy olimlardan Maxsudov Davronbekning “Abu-l-Barakot an-Nasafiyning tafsir ilmida tutgan o‘rni” tadqiqotida Abul Barakot Nasafiyning hayoti va ilmiy merosi hamda “Tafsiru-n-Nasafiy” asarining tafsirshunoslikdagi o‘rni bayon etilgan. Mazkur tafsir Abu Mansur Moturidiy, Imom Bayzoviy, Mahmud Zamaxshariy, Jaloliddin Suyutiy, Jaloliddin Mahalliy va Ibn Kasirning tafsirlari bilan qiyosiy o‘rganilib, asarning bugungi kundagi ahamiyati ochib berilgan. Axmedov Sayqalning “Abu Barakot Nasafiyning Movarounnahr hanafiy fiqhi rivojiga qo‘shgan hissasi (“al-Vofiy” asari asosida)” tadqiqotida “al-Vofiy” asaridagi mavzular, manbada qo‘llanilgan fiqhiy qoidalar yoritilib, Nasafiy fiqhiy qarashlarining zamonaviy ijtimoiy muammolarni hal etishdagi ahamiyati ochib berilgan.

Muxtarov Bekzodbekning “Nosiruddin Samarqandiyning “al-Fiqh an-nofe” asari hanafiy fiqhiga oid muhim manba” tadqiqotida “al-Mustasfo” asarining o‘ziga xos uslublari yoritilib, manbalari va iboralari haqida ma’lumotlar berilgan hamda dunyoning ko‘plab kutubxonalarida saqlanadigan “al-Mustasfo” asarining qo‘lyozma nusxalari aniqlangan. Abdulloh Mallaboyevning “Abul Barakot Hofiziddin Nasafiyning “al-Mustasfo” asari muhim fiqhiy manba” maqolasida “al-Mustasfo” asarining ahamiyati, Nasafiyning hanafiy mazhabi faqihlari orasida tutgan o‘rni yoritilib, asarning vujudga kelish sabablari, qo‘lyozma nusxalarda kelgan turli nomlari haqida ma’lumotlar berilgan. Asarning muhim fiqhiy manbalardan sanalishiga sabab unda fiqhiy dalillarga alohida urg‘u berilgani, dalil keltirish uslublari aniq bayon qilingani hamda masalalarning asl negizi ochib berilgani bilan izohlangan.

Xorijlik olimlar o‘z tadqiqotlarida asosiy e’tiborni qo‘lyozma manbalarni o‘zaro solishtirish, matnshunoslik va ilmiy tahlilga qaratadilar. Mahalliy olimlar esa asl manbalardagi g‘oya va masalalarni bugungi kun bilan bog‘liq holda amaliy jihatdan talqin qilishga ahamiyat beradilar. Bu ikki yondashuv esa Abul Barakot Nasafiy merosini har tomonlama chuqur anglashga xizmat qiladi. Olimning asarlarini o‘rganish, tadqiq etilmaganlari ustida ilmiy tadqiqot va izlanishlar olib borish, zamonaviy nashrini amalga oshirish hamda kelgusi avlodga uning boy merosini tanitish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Dissertatsiya tarkibidagi **“Abul Barakot Nasafiy “al-Mustasfo” asarining**

manbashunoslik tahlili” nomli ikkinchi bobning birinchi bandi *“Al-Mustasfo” asari qo‘lyozma nusxalarining tavsifi*” deb nomlangan bo‘lib, unda “al-Mustasfo” asarining qo‘lyozma nusxalari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari va manbashunoslik tahlili tadqiq etilgan.

Bugungi kunda Amerika, Angliya, Irlandiya, Turkiya, Saudiya Arabistoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Iroq, Suriya, Misr, Jazoir, Damashq, Livan, Tunis hamda O‘zbekistonda asarning 53 ta qo‘lyozma nusxasi saqlanadi. Tadqiqotda “al-Mustasfo” asari 6 ta qo‘lyozmasining muallif zamoniga yaqinligi, noyoblighi e‘tiboridan manbashunoslik tahlili amalga oshirilgan. Birlashgan Arab Amirliklari davlatidagi “Juma al-majid” markazi fondida Abul Barakot Nasafiy asarlarining 62 ta elektron qo‘lyozma nusxasi mavjud bo‘lib, ulardan 4 tasi “al-Mustasfo” asari.

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro viloyati axborot-kutubxona markazida Abul Barakot Nasafiyning № 20-raqam ostida saqlanadigan “al-Mustasfo” asarining noyob qo‘lyozma nusxasi mavjud. Mazkur nusxaning alohida qimmatini uning muallif hayotligi davrida, aniqrog‘i, 1286-yilda ko‘chirilgani bilan belgilanadi. Bu holat qo‘lyozmaning ilmiy qiymati hamda manbashunoslik ahamiyatini yanada oshiradi. Qo‘lyozma nasx xatida bitilgan. Asarning turli sahifalarida Muhammad ibn Mahmud Hofiz Buxoriyning shaxsiy muhrlari uchraydi. Unda: “vafq Xoja Porso ibn Mahmud al-Buxoriy” degan yozuvni o‘qish mumkin. Bu esa qo‘lyozma o‘z davrida Xo‘ja Porsoning shaxsiy kutubxonasida saqlangan eng mo‘tabar va murojaat etiluvchi manbalardan biri bo‘lganini anglatadi.

Qo‘lyozmalarning aksariyatida “al-Mustasfo” asari to‘liq saqlanib qolgan. Asardagi bo‘lim, bob va fasllarning nomi alohida ajratib ko‘rsatilgan. Matnlardagi bob va fasllarning nomlari qizil yoki qalin qora siyoh bilan ajratib ko‘rsatilgan. Aksariyat nusxalarda mundarija qismi ham mavjud. Asarning mashhur qisqartma – “al-Mustasfo” (المستصفى) nomi turli nusxalarda “al-Mustasfo sharhu-n-Nofe” (شرح نافع فى الفروع), “Sharhu Nofe’ fi-l-furu” (المستصفى فى شرح الفقه النافع) hamda “al-Mustasfo fi sharhi-l-fiqhi-n-Nofe” (المستصفى فى شرح الفقه النافع) kabi shakllarda uchradi. Askariyat nusxalarda asar ko‘chirilgan yil va xattot nomi yozilgan. Ayrim qo‘lyozmalardagi muhrning mavjudligi uning qimmatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

“Al-Mustasfo” asarining ko‘plab qo‘lyozma nusxalarining bugungi kunga qadar saqlanib qolgani uning ilmiy va amaliy ahamiyati yuqori bo‘lganini ko‘rsatadi. Asarning o‘z davrida keng tarqalgani undan ko‘plab hanafiy ulamolar va ilm toliblari foydalangani va ta’lim jarayonida muhim manba bo‘lib xizmat qilganini anglatadi.

“Asarda muallif tayangan manbalar tahlili” nomli ikkinchi bandeda Abul Barakot Nasafiy “al-Mustasfo” asarining manbalari tahlil etilgan. Ushbu asar olimning fiqh va usul bo‘yicha yozgan asarlari uchun poydevor sanalgan. Nasafiy “al-Mustasfo” asarini o‘zining “al-Mustavfo” asaridan keyin – 1266-yilda ta’lif etgan. Olim o‘zining “al-Vofiy”, “Kashfu-l-asror”, “Sharhu-l-Muntaxab”, “al-Musaffo” kabi keyingi asarlarida “al-Mustasfo”dan iqtiboslar keltirgan⁸. Asar 63

⁸ Mallabayev A. Abul Barakot Hofiziddin Nasafiyning “al-Mustasfo” asari – muhim fiqhiy manba // “Infolib” axborot-kutubxona xabarnomasi. № 4(16), 2018. – B. 68–69.

ta kitob (bo'lim), 176 ta katta-kichik bob hamda fasllardan iborat. U "Kitobu-t-tahorat" (Poklik kitobi) bilan boshlanib, "Kitobu-l-xunasa" (Xunasa haqida kitob) bilan yakunlangan.

Abul Barakot Nasafiy mazkur asarni ta'lif etish jarayonida mashhur kitoblardan manba sifatida foydalangan. Olim tayangan masdarlar mazhabda ishonchli hamda ulamolar murojaat qilgan asarlar sirasiga kiradi. U nafaqat fiqhiy asarlar, balki aqida, tafsir, hadis, usul, grammatika hamda lug'at ilmi sohalaridagi taniqli va ishonchli manbalarga ham alohida ahamiyat bergan.

Nasafiy aqidaviy masalalarni sharhlashda Abu Mu'in Nasafiy (vaf. 508/1114-y.)ning "Tabsiratu-l-adilla" ("Dalillar bayoni"), oyatlarni tafsir etishda Zamaxshariy (vaf. 538/1144-y.)ning "al-Kashshof" ("Ochib beruvchi") va Alouddin Samarqandiy (vaf. 552/1157-y.)ning "Sharhu-t-ta'vilot" ("Ta'vilot sharhi") asarlariga ko'p o'rinlarda tayangan. Hadis va uning roviylarini sharhlashda Imom Abu Dovud (vaf. 275/888-89-y.)ning "Sunani Abu Dovud" ("Abu Dovud sunani"), Tahoviy (vaf. 321/933-y.)ning "Mushkilu-l-osor" ("Osor (sahoba va tobeiylar so'zi)ni tushunishdagi muammolar"), ibn Hibbon (vaf. 354/965-y.)ning "Kitobu-s-siqot" ("Buyuk insonlar haqida kitob"), Muhammad Kalobodiy (vaf. 384/994-y.)ning "Ma'oniyyu-l-axbor" ("Hadis ma'nolari"), imom Bag'aviy (vaf. 516/1122-y.)ning "al-Masobih" ("Chiroqlar") asarlaridan istifoda etgan.

Olim fiqh sohasida "al-Asl" ("Asl"), "az-Ziyodot" ("Ziyoda masalalar"), "al-Jome'u-s-sag'ir" ("Kichik majmua"), "al-Jome'u-l-kabir" ("Katta majmua"), "Navodiru ibn Samoa" ("Ibn Samoa' nodirliklari"), "Muxtasaru-t-Tahoviy" ("Muxtasari Tahoviy"), "Muxtasaru Abu Muso az-Zarir" ("Muxtasari Abu Muso az-Zarir"), "Sharhu muxtasari-t-Tahoviy" ("Muxtasari Tahoviy sharhi"), "Xizonatu-l-fiqh" ("Fiqh xazinasini"), "Muxtalifu-r-rivoya" ("Rivoyatlardagi qarama-qarshiliklar"), "al-Muxtalifat fi furu'i-l-hanafiya" ("Furu' al-hanafiyadagi qarama-qarshiliklar") kabi jami qirqa yaqin manbalardan foydalangan.

"Al-Mustasfo"da aqida, tafsir, hadis, fiqh, grammatika, lug'at va boshqa ilm sohalaridagi hanafiy fiqhi doirasida e'tirof etilgan, ulamolar tomonidan keng murojaat qilinadigan, mashhur va ishonchli ellikdan ziyod asarlardan istifoda etilgan. Abul Barakot Nasafiy asarni turli manbalarga tayanib, ilmiy an'analarni uyg'unlashtirgan holda yozishi uning ishonchlilik darajasi, ilmiy qiymatini yanada oshirgan hamda hanafiy huquq maktabi rivojida muhim o'rin tutgan.

"Abul Barakot Nasafiyning fiqhiy masalalarni sharhlashdagi uslubi" deb nomlangan uchinchi badda Abul Barakot Nasafiy "al-Mustasfo" asarining uslublari tahlil etilgan. Nasafiy sharhidagi masalalar Qur'oni karim oyatlari va hadisi shariflardagi dalillarga suyangani holda keltirilgan. U "al-Mustasfo" asarida Qur'onning 71 ta surasi, 347 ta oyatidan juda ko'p o'rinlarda istifoda etgan. Aksariyat holatlarda "Baqara", "Niso", "Moida", "An'om" suralariga murojaat qilgan. Nasafiy noaniq va tushunarsiz jummalarni ishlatmay, sharhda oson uslub, aniq ibora hamda tushunarli so'zlardan foydalanishga harakat qilgan. Nasafiy asarda ortiqcha jumla, mubolag'a hamda foydasi bo'lmagan qo'shimcha so'zlardan foydalanmagan.

Abul Barakot Nasafiy sharhida asardagi jumlalarning aniqligi, soʻzlarning bexatoligi, oʻzida mavjud boʻlgan nusxalarni solishtirish, tushunarsiz soʻz va iboralarga oydinlik kiritishga ahamiyat bergan. Bob va fasllarni sharhlashda uning mavzusi boʻlgan soʻzning lugʻaviy va sharʼiy maʼnolarini batafsil yoritgan. Qurʼoni karim oyatlari va hadisi shariflardan mavzuga doir misollar keltirib, olimlarning ham bunga oid fikrlarini bayon etgan.

Nasafiy biron masala yuzasidan vujudga kelgan mazhablar oʻrtasidagi turli fikrlarni tarfakashlik holatidan yiroq boʻlib, oʻsha masala boʻyicha hanafiy mazhabida qabul qilingan qavlni bayon qilgan. Muallif asardagi masalalarni oʻz davrining muhiti va unda yashagan insonlar bilan bogʻlagan. U asarda nafaqat muallifning soʻzlarini sharhlovchi, balki oʻz fikr, qarash va bilimlarini bayon qiluvchi faqih sifatida ham namoyon boʻlgan. Nasafiy fiqhiy masalalar yuzasidan oʻzidan oldingi hamda oʻzi bilan zamondosh olimlarning asar va fikrlaridan yaxshi xabardor boʻlib, har bir soʻzni egasi hamda har bir maʼlumotni manbasiga havola qilgan.

Hanafiy fiqhi olimlarining aksariyat kitoblari “al-Mustasfo” asaridan istifoda va naql qilingan. Masalan, Abdulhay Laknaviy hanafiy mazhabidagi moʻtabar asarlar ichida Nasafiyning “al-Mustasfo” sharhini zikr qilib: “Men uning “al-Vofiy”, “al-Kofiy” hamda “al-Mustasfo” asarlaridan foydalanganman”⁹, deb taʼkidlasa, Ibn Nujaym (vaf. 970/1563-y.) kitobining asosiy masdari sifatida “al-Mustasfo”ga ishora qilib: “Men koʻpgina sharh va fatvolardan foydalandim... “Al-Mustasfo” hamda “al-Musaffo” sharhlari shular jumlasidandir”¹⁰, deb aytgan. Shuningdek, Alouddin Buxoriy oʻzining “Kashfu-l-asror”, Faxriddin Zaylaʼiy “Tabyinu-l-haqoiq”, Akmaliddin Babartiy (vaf. 786/1384-y.) “al-Inoya sharhu-l-Hidoya” asarlarida “al-Mustasfo”dan matn va maʼnolarni naql qilishgan.

Tadqiqotning **“Al-Mustasfo” asarida fiqhiy masalalarning yoritilishi** nomli uchinchi bobining birinchi bandi *“Al-Mustasfo” asarida hanafiy fiqhi atamalarining qoʻllanilishi* deb nomlangan. Mazkur badda Abul Barakot Nasafiy “al-Mustasfo” sharhida oʻzidan oldingi asarlarda anʼanaviy fiqhiy atamalarni istifoda etgani, mazhab ulamolari, fatvo, rivoyat va qavllar, kitoblar hamda hukmlarga oid istilohlardan foydalanish xususiyatlari yoritilgan.

Nasafiy mazhab ulamolariga yuksak ehtirom va eʼtibor koʻrsatgan holda, tadqiqot matnida – alloma, shayx, shayxu-sh-shayx, shayxu-l-ustaz kabi oʻziga xos atamalardan foydalangan. Masalan, “al-Mustasfo” sharhining nihoyasida:

"ما وقع في هذا الكتاب من ذكر العلامة فالمراد منه الشيخ الامام العالم الزاهد الناسك الرباني الصمداني شمس الائمة الكردي رضي الله عنه و ما وقع فيه من ذكر الشيخ و الاستاذ مطلقا فالمراد منه الشيخ الامام العالم النحرير مولانا حميد الملة و الدين نور الله قبره "

“Ushbu kitobda “alloma” deb zikr qilingan oʻrin – shayx, imom, olim, zohid, taqvodor, xudojoʻy, shamsul aimma Kardariy (Alloh undan rozi boʻlsin) hamda “shayx” va “ustoz” lafzlari mutlaq keltirilgan joy – shayx, imom, olim, bilimdon,

⁹ عبد الحي الكوني. الفوائد البهية في تراجم الحنفية. – بيروت: دار الأرقم، 1998. – ص. 173.

¹⁰ البحر الرائق. ابن نجيم ¹⁰ Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasi, Manbalar xazinasi. Toshbosma. № 68. – B. 2.

mavloni Hamiduddin (Alloh uning qabrini munavvar qilsin)ni anglatadi”¹¹, deb aniqlik kiritgan.

